

SCIENCEZONE

ONLINE SCIENTIFIC
CONFERENCES

Conference On Legal Science



No.3 (2)

2024

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING FUQAROLIK-HUQUQIY MEXANIZMI	3
<i>Aliyeva Marjona Obid qizi</i> ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMA TUZISHNING UMUMIY TALABLARI	12
<i>Tilavova Sadaf To'lqin qizi</i> O'ZBEKİSTON VA GERMANİYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TAMOYILLARI VA ULARNING TADBIRKORLIK QONUNCHILIGIDA AHAMIYATI	16
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> SUDLAR FAOLIYATIGA ELEKTRON ODIL SUDLOV MODELINI TATBIQ ETISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI	19
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> METAVERSE PLATFÖRMALARIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH	27

O'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMoya QILISH TAMOYILLARI VA ULARNING TADBIRKORLIK QONUNCHILIGIDA AHAMIYATI

Sadaf Tilavova To'lqin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

sadaftilavova2021@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishning asosiy tamoyillari, ularning tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonun normalarining tadbirkorlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati O'zbekiston va Germaniya qonunchiligi asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, huquq tizimi, tamoyillar, huquq va erkinliklar, normtaiv-huquqiy hujjat, qonun, qonunchilik, iqtisodiy faoliyat, bozor munosabatlari, tadbirkorlik huquqi va hokazo.

Davlatimizda tadbirkorlik subyektlari huquqiy maqomi va ularning davlatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni juda ahamiyatli bo'lib qonun-hujjatlari bilan tartibga solingan. Tadbirkorlik huquq sohasi alohida tartibga solingan bo'lib, tarbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi va bozor sharoitida davlatning iqtisodiyotga rahbarlik qilish bilan bog'liq chora tadbirlarni belgiluvchi huquqiy qoidalar yig'indisidan iboratdir[1].

1990-2000-yillarning boshlarida O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlarining tashkil etilishi, sanoatlashtirish, korxonalarni ommaviy xususiy lashtirish va yer tuzish O'zbekiston hududida tadbirkorlarning huquqiy maqomi va rolini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining huquqiy maqomi tarixi qishloq xo'jaligi, savdo, pul muomalasi, soliqlar va ijtimoiy sug'urtaning tarixiy rivojlanishida o'z ildizlari va asoslariga ega. Iqtisodiyotdagi huquqiy islohotlarga va tadbirkorlik sub'ektlarini davlatdan

ajratishga muvofiq, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy maqomini yaxshilashga harakat qilindi.

Har qanday huquq sohasini tartibga soluvchi rahbariy bosh qoidalari mavjud bo`lgani kabi tadbirkorlik huquqining ham asosiy va eng muhim prinsiplari O`zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan asosiy qoidalardir. Ushbu tamoyillar tadbirkorlikni rivojlanishida barcha tadbirkorlik subyektlarining iqtisidiy faoliyatini ma`lum bir maqsad sari yo`naltirib, huquqiy tartibga solib turuvchi asosiy mezonlardir. Tadbirkorlik huquqining asosiy priniplari quyidagilar hisoblanadi:

- Iqtisodiy faoliyat erkinligi;
- Tadbirkorlik subyektlarining tengligi;
- Iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- Bozor infratuzilmasini shakllantirish;
- Narxlarni erkinlashtirish;
- O`zaro erkin raqobat;
- Qonuniylik;
- Davlatning ta`sir etishi;

Iqtisodiy faoliyat erkinligi tamoyili asosiy tamoyillaridan biri hisoblanib, Konstitutsiyada mustahkamlanib qo`yilgan. Uning 53-moddasiga asosan “Davlat iste`molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi”.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish prinsipining mohiyati shundan iboratki, har bitta qonunda belgilangan tartibda tadbirkorlik bilan shug`illanuvchi, ya`ni moddiy tovar ishlasb chiqaruvchi, ishlarni bajaruvchi yoki xizmatlarni ko`rsatuvchi tadbirkorlik subyektining iqtisodiy manfaati qonunlarda belgilangan tartibda tegishli organlar tomonidan himoya qilinadi.

Germaniyada ham tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bilan bo`g`liq mustahkam qonunchilik tizimi mavjud deya olamiz. Tadbirkorlik faoliyatida intellectual mulk bilan bog`liq huquqlarni kafolatlaydi, ya`ni tadbirkorlik faoliyati davomida ular yangi g'oyalar, mahsulotlar yoki jarayonlarni yaratishi mumkin. Germaniya qonunchiligi intellektual mulk huquqlarini, masalan, patentlar, tovar belgilari va mualliflik huquqlarini tan oladi va himoya qiladi, va ushbu tamoyilga amal qilinishi esa tadbirkorning innovatsiyalari himoya qilinishini ta'minlaydi.

Shuningdek, tadbirkorlarning tijorat sirlarining maxfiyligi. Ushbu tamoyil tadbirkorning o`zining tijorat sirini o`zining ruxsatisiz boshqalarga oshkor qilinishi yoki noto`g`ri ishlatishdan himoyalanishni anglatadi. Bunda davlat tadbirkorlik subyektlarining ish faoliyatları bilan bog`liq har qanday turdagı maxfiy ma`lumotlarni oshkor qilinmasligini kafolatlaydi.

Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy Qonunining 14-moddasi (Grundgesetz) tadbirkorlik erkinligini kafolatlaydi. Demak, har kim tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanish huquqiga ega, qonunda belgilangan cheklovlar bundan mustasno. Tadbirkorlik faoliyati erkinligi hamma uchun kafolatlanadi, ya'ni qonunda belgilangan tartibda qonun bilan cheklanmagan faoliyat turlari bilan erkin shug'illanishlari mumkin[2].

Qonun ustuvorligi prinsipi (Rechtsstaatsprinzip) davlatning qonun doirasida harakat qilishi va tadbirkorlar huquqlarini o'zboshimchalikdan himoya qilinishini, ularning buzilgan huquqlarini himoya qilinishini bildiradi.

REFERENCES:

1. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. Mas`ul moharrir: y.f.n. dotsent X.Azizov-T.:TDYU,2018.-13 bet
2. "Investment in Germany" by Marco Grundig and Andreas Glunz, International business Germany-2016, 52-page